

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

SAPAYEV SHIXNAZAR OMON O‘G‘LI

O‘QQA NISBATAN SIMMETRIK JISMDAGI NOSTATSIONAR ISSIQLIK
TARQALISH MASALASINI SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07- Matematik modelashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Sapayev Shixnazar Omon o'g'li

O'qqa nisbatan simmetrik jismdagi nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini
sonli modellashtirish 3

Сапаев Шихназар Омон угли

Численное моделирование нестационарной задачи теплопереноса
в осесимметричной конструкции 21

Sapayev Shikhnazar Omon ugli

Numerical modeling of unsteady heat conduction in an axisymmetric body 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SAPAYEV SHIXNAZAR OMON O‘G‘LI

**O‘QQA NISBATAN SIMMETRIK JISMDAGI NOSTATSIONAR
ISSIQLIK TARQALISH MASALASINI SONLI MODELLASHTIRISH**

05.01.07- Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Tashkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5534 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Polatov Asxad Muxamedjanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muhamediyeva Dildora Kabilovna
texnika fanlari doktori, professor

Yusupov Yusuf Saidjonovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "12" fevral da soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (405 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "2" fevral dagi 4 raqamli ryestr bayonnomasi.)



M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M. Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan va texnika tadqiqotlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri – issiqlik ta’siriga uchraydigan turli muhandislik inshootlarining ishlashini aniqlik bilan hisoblash imkonini beruvchi modellarni yaratishdir. O‘qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini o‘rganish zamonaviy texnologiyalar va texnikaning rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, aviatsiya, yadro energetikasi va raketa-kosmik texnologiyalarining rivojlanishi issiqlik tarqalishiga doir yangi masalalarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiq qilinayotgan obyektlarning murakkab geometriyasi va tashqi ta’sirlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda, issiqlik almashinuvi jarayonlarini baholash uchun sonli usullar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zarur. Bunday masalalarning matematik modellari, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta’minotlarini yaratish bo‘yicha AQSH, Kanada, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon kabi davlatlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va sonli modellashtirish usullari asosida o‘qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarini hisoblash, tahlil qilish va uzoq vaqt oralig‘ida ularning rivojlanishini bashoratlash bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunday jarayonlarning matematik modellarini yaratish va ularni sonli usullarda yechish zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy qadam hisoblanadi. Masalan, yuqori haroratli qurilmalarning ishonchliligini oshirish yoki energiya tejamkorligini ta’minlashda issiqlik jarayonlarini to‘g‘ri modellashtirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sanoat, qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bu boradagi vazifalar, jumladan, “davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish, zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar sifatini yaxshilash, ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish ...”¹ kabi vazifalar belgilandi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston – 2030” PF-158-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4699-son qarori, 2019 yil 23 oktabrdagi “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi

¹ “Raqamli O‘zbekiston — 2030”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.

qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jismlarda issiqlik tarqalish jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirish va ularni sonli usullarda yechishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari bir qancha chet el olimlari O. Zenkevich, L. Segerlind, A.A. Samarskiy, P.N. Vabishevich, N.P. Jukov, G.V. Kuznetsov, M.A. Sheremet, A.M. Lipanov, S.S. Makarov, L.M. Ivannikov, S. S. Nikulin, P.A. Mandrik, B.S. Petuxov, L.G. Genin, S.A. Kovalev, S.L. Solovyev, K. Frank, R.M. Manglik, S.B. Mark, W. David, N. Ozisik, H.V. David, P. Seshu, J.N. Reddy, S.V. Patankar, S. Wang, L. Zhang, X. Sun va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'zbekiston Respublikasida jismlarda issiqlik tarqalish jarayonlarining matematik modellari, hisoblash usullari va shu kabi tadqiqotlarga F.B. Abutaliyev, M. Aripov, Sh. Nazirov, I.K. Xo'jayev, A.A. Xaljigitov, A. Begmatov, N. Ravshanov, A.Sh. Muxammadiyev, A.M. Polatov, I. Mirzayev, A. Ne'matov, E.Sh. Nazirova, Sh.A.Anarova va boshqa olimlar o'zlarining katta xissalarini qo'shganlar.

Yuqorida qayd etilgan hamda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning sa'y-harakatlari natijasida nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan muhim natijalar qo'lga kiritilib, sanoat qurilmalari hamda qishloq xo'jaligida nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini e'tiborga oladigan matematik modellar va hisoblash algoritmlarini yaratish va takomillashtirish bilan bog'liq masalalar hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, UZB-Ind2021-87-sonli "Li simmetriyasi tahlili, giperbolik sistemalarning Lyapunov bo'yicha turg'unligini tahlil qilish va modellashtirish" (2021-2023) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini sonli modellashtirish. Hisoblash algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarini o'rganishga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

murakkab geometriyaga ega o'qqa nisbatan simmetrik jismlarning kesimi geometriyasini visual ko'rinishda chizish va chekli elementlar to'rini qurish algoritmini ishlab chiqish;

o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalishi masalasini yechishda boshlang'ich va chegaraviy shartlarni grafik interfeys orqali aniqlash imkonini beruvchi dasturiy ta'minot modulini ishlab chiqish;

murakkab geometriyaga ega jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini chekli elementlar usulida hisoblash algoritmini ishlab chiqish;

bir jinsli bo'lmagan jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini chekli elementlar usulida hisoblash algoritmini ishlab chiqish;

o'qqa nisbatan simmetrik jismlardagi nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarini asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblash tajribalarini o'tkazish va ular asosida jarayonlarni tadqiq qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayoni qaraldi.

Tadqiqot predmetini bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan murakkab geometriyaga ega o'qqa nisbatan simmetrik jismlardagi nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonini tadqiq etish uchun matematik modellar va sonli usullar, hisoblash algoritmlari hamda dasturiy majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashirishda issiqlik tarqalish nazariyasiga asoslangan variatsion tamoyillar va gipotezalar, xususiyl hosilali tenglamalar sistemasini yechishning sonli usullari, diskret matematika, algoritmlash, kompyuter vositasida modellashirish va chekli elementlar usullari hamda dasturlash texnologiyalari uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

murakkab geometriyaga ega jismlar uchun nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini chekli elementlar usuli asosida sonli modeli va hisoblash algoritmi ishlab chiqildi;

bir jinsli bo'lmagan jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini chekli elementlar usuli asosida hisoblash algoritmi ishlab chiqildi;

murakkab geometriyaga ega jismlar kesimining visual ko'rinish asosida chekli elementlar to'rini qurish algoritmi ishlab chiqildi;

o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalishi masalasining boshlang'ich va chegaraviy shartlarini hisobga olish algoritmi yaratildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalishining nostatsionar jarayonlarini o'rganish maqsadida sonli modellar ishlab chiqildi;

matematik apparat va dasturiy vositalar yordamida real o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalishining asosiy ko'rsatkichlari va parametrlari aniqlangan;

murakkab geometriyaga ega o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayoni tadqiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi issiqlik tarqalish tenglamasi, uning chegaraviy shartlari va energiyaning saqlanish qonunlariga qat'iy asoslanganligi, shuningdek, sonli hisoblash natijalarining boshqa tizimlarda olingan yechimlar bilan solishtirilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarni tahlil qilish hamda bashoratlash uchun matematik modellashtirish va hisoblash eksperimenti metodologiyasini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda issiqlik tarqalish jarayonini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan algoritmlar va yaratilgan dasturiy majmua asosida:

o'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonini chekli elementlar usuli asosida hisoblash algoritmi va dasturiy vositasi "UzXCMG" MCHJ qo'shma korxonasida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2025 yil 25 apreldagi 6-1556 sonli ma'lumotnomasi). Uzoq vaqt yuqori temperatura maydoni ta'sirida bo'lgan o'qqa nisbatan simmetrik konstruksiya elementlarining ekspluatatsiya ishonchliligini, mustahkamligini ta'minlashga va hisoblashlarni o'tkazishga ketadigan vaqt sarfini 8-12 % ga qisqartirish imkonini bergan;

o'qqa nisbatan simmetrik konfiguratsiyaga ega gaz pechkasining ichki issiqlik manbai va tashqi muhit bilan issiqlik almashinishini hisobga olish orqali statsionar issiqlik tarqalish masalasi bo'yicha chekli elementlar usuli asosida hisoblash algoritmi va dasturiy vositasi "XORAZM TEX" MCHJ Klasterning Xonqa tumani bo'limiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2025 yil 25 apreldagi 6-1556 sonli ma'lumotnomasi). Gaz pechkasining haroratining maksimal va minimal qiymatlari tadqiq qilingan. Hisob kitoblarni yuritish ishlari aniqligi, 1.15 marta, tezligini esa 1.25 martaga oshganligi sababli ketadigan vaqt sarfini 10-12 % ga qisqartirish imkonini bergan;

issiqlik tarqalish masalalarini sonli modellashtirish va masalani yechish algoritmlarini ishlab chiqishda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2021-2023 yillar davomida bajarilgan UZB-Ind-2021-87-sonli "Li simmetriyasi tahlili, giperbolik sistemalarning Lyapunov bo'yicha turg'unligini tahlil qilish va modellashtirish" grant loyihasida (O'zbekiston Milliy universiteti 2025 yil 2 maydagi 04/11-5701 sonli ma'lumotnomasi);

xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda sohaning diskret to'plamini hosil qilish va masalani yechish algoritmlarini ishlab chiqishda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan F22020092877 – sonli "Birjinslimas g'ovak muhitlarda anomal moddalar ko'chishi va suyuqliklar sizishi jarayonlarining matematik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish" grant loyihasida (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2025 yil 17 maydagi 10-2434 sonli ma'lumotnomasi) xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemalarini sonli modellashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 13 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, undan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan, shuningdek 3 ta EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 116 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganlik holati hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘qqa nisbatan simmetrik jismdagi issiqlik tarqalish masalasini matematik modellash tirish bo‘yicha tadqiqotlar tahlili va masalaning qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida so‘ngi yarim asrda o‘qqa nisbatan simmetrik jismlardagi nostatsionar issiqlik tarqalishi jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha nashr qilingan ilmiy ishlar tahlili keltirilgan. O‘qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalishi masalasini qo‘yilishi, sonli modellash tirish va chekli elementlar usulida tavsifi keltirilgan.

Silindrik koordinatalar sistemasida nostatsionar issiqlik tarqalishi quyidagi differensial tenglama bilan tavsiflanadi:

$$K_{rr} \frac{\partial^2 T}{\partial r^2} + \frac{1}{r} K_{rr} \frac{\partial T}{\partial r} + \frac{K_{\theta\theta}}{r^2} \frac{\partial^2 T}{\partial \theta^2} + K_{zz} \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} + Q(r, z) = \rho c \frac{\partial T}{\partial t} \quad (1)$$

bunda $K_{rr}, K_{\theta\theta}, K_{zz}$ – mos yo‘nalishlardagi issiqlik o‘tkazish koeffitsientlari; $T = T(r, \theta, z, t)$ – temperatura; ρ – jism zichligi, c – solishtirma issiqlik sig‘imi, $Q = Q(r, z)$ – jism ichidagi issiqlik ajratish manbalarining quvvati; r – simmetriya o‘qidan markazigacha bo‘lgan masofa; θ – azimutal burchak.



1-rasm. O‘qqa nisbatan simmetrik jism ko‘rinishi

Agar uch o‘lchamli jism Oz o‘qqa nisbatan geometrik simmetriyaga ega bo‘lsa, u holda bu jism o‘qqa nisbatan simmetrik jism deb ataladi (1-rasm). Bundan tashqari, o‘rganilayotgan fizik miqdor azimutal burchakga bog‘liq bo‘lmasa, u holda (1) differensial tenglama quyidagicha bo‘ladi:

$$K_{rr} \frac{\partial^2 T}{\partial r^2} + \frac{1}{r} K_{rr} \frac{\partial T}{\partial r} + K_{zz} \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} + Q(r, z) = \rho c \frac{\partial T}{\partial t}. \quad (2)$$

(2) tenglama bilan ikki turli ko‘rinishdagi chegaraviy shartlar qaraladi. Agar chegaraning bir necha qismida temperatura ma’lum bo‘lsa, quyidagicha tasvirlanadi (Dirixle sharti):

$$T = T_s(r, z, t), \quad (3)$$

bunda T_s – jism sirtidagi harorat.

Agarda jismning sirtida q issiqlik oqimi berilganda (Neyman sharti) yoki $h(T - T_b)$ konvektiv issiqlik almashishi yuz bersa (Nyuton-Rixman sharti) chegaraviy shart quyidagi ko‘rinishni oladi:


$$K_{rr} \frac{\partial T}{\partial r} l_r + K_{zz} \frac{\partial T}{\partial z} l_z + q + h(T - T_b) = 0, \quad (4)$$

bunda h – issiqlik almashish koeffitsiyenti; T_b – tashqi muhit temperaturasi; l_r, l_z – yo‘nalishlar kosinuslari; q – issiqlik oqimi (agarda issiqlik jismdan tarqalsa musbat hisoblanadi).

Issiqlik oqimi q va konvektiv issiqlik yo‘qotilishi $h(T - T_b)$ yuza chegarasining bir xil joyida bir vaqtda uchramaydi. Agar konvektiv uzatish hisobiga issiqlik yo‘qotish mavjud bo‘lsa u holda issiqlik oqimi hisobiga issiqlik uzatilishi yoki yutilishi sodir bo‘lmaydi va aksincha. Agar konvektiv issiqlik almashish mavjud bo‘lmasa, bundan tashqari, issiqlik oqimi nolga teng bo‘lsa, issiqlik izolyatsiyasi chegaraviy sharti quyidagicha bo‘ladi: $\frac{dT}{dn} = 0$.

Masalani yechish uchun uning variatsion ko‘rinishi ko‘rib chiqiladi, bu esa taqribiy yechish usullaridan foydalanishga imkon beradi. Ushbu usullardan biri – chekli elementlar usuli. Yuqorida keltirilgan (3) va (4) chegaraviy shartlardan tashkil topgan (2) tenglamaning yechimi quyidagi funksionalni minimumini aniqlashga ekvivalent:

$$\Phi(T) = \int_V \frac{1}{2} \left[r K_{rr} \left(\frac{\partial T}{\partial r} \right)^2 + r K_{zz} \left(\frac{\partial T}{\partial z} \right)^2 - 2 \left(r Q - \rho c \frac{\partial T}{\partial t} \right) T \right] dV + \int_{S_1} q T dS + \int_{S_2} \frac{h}{2} (T - T_b)^2 dS, \quad (5)$$



2-rasm. Uchburchak chekli element

Uchburchak elementda (2-rasm) issiqlik tarqalishi quyidagi ko‘pxad ko‘rinishida approksimatsiya qilinadi: $T(r, z, t) = \alpha_1 + \alpha_2 r + \alpha_3 z$.

Element uchun issiqlik funksiyasi quyidagi formula bilan beriladi:

$$T^{(e)} = \begin{bmatrix} N_i(r, z) & N_j(r, z) & N_k(r, z) \end{bmatrix} \begin{Bmatrix} T_i(t) \\ T_j(t) \\ T_k(t) \end{Bmatrix}; \quad (6)$$

bunda T_i, T_j, T_k – tugun nuqtalardagi temperatura qiymatlari, N_i, N_j, N_k - shakl funksiyalari:

$$N_i = \frac{1}{2A}(a_i + b_i r + c_i z); \quad N_j = \frac{1}{2A}(a_j + b_j r + c_j z); \quad N_k = \frac{1}{2A}(a_k + b_k r + c_k z);$$

$$\begin{cases} a_i = R_j Z_k - R_k Z_j, \\ b_i = Z_j - Z_k, \\ c_i = R_k - R_j, \end{cases} \quad \begin{cases} a_j = R_k Z_i - R_i Z_k, \\ b_j = Z_k - Z_i, \\ c_j = R_i - R_k, \end{cases} \quad \begin{cases} a_k = R_i Z_j - R_j Z_i, \\ b_k = Z_i - Z_j, \\ c_k = R_j - R_i, \end{cases}$$

bunda A – uchburchak yuzasi,

$$\text{gradiyent matritsasi} \quad [B] = \frac{1}{2A} \begin{bmatrix} b_i & b_j & b_k \\ c_i & c_j & c_k \end{bmatrix}, \quad (7)$$

$$\text{jismning issiqlik o'tkazuvchanlik matritsasi} \quad [D] = \begin{bmatrix} rK_{rr} & 0 \\ 0 & rK_{zz} \end{bmatrix}, \quad (8)$$

bunda $r = (R_i + R_j + R_k) / 3$ simmetriya o'qidan elementning markazigacha bo'lgan masofani anglatadi.

e -chekli element uchun vaqtga nisbatan (6) differensial tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = [N(r, z)]^{(e)} \frac{\partial \{T\}^{(e)}}{\partial t}. \quad (9)$$

(5)-funktionalga (6)-(9) ifodalarni qo'yib quyidagini hosil qilish mumkin:

$$\Phi = \sum_{e=1}^m \Phi_e = \sum_{e=1}^m \left[\frac{1}{2} \cdot \int_{V_e} \{T\}^T [B]_e^T [D]_e [B]_e \{T\} dV + \int_{V_e} \rho c [N]_e \{T\} [N]_e \frac{\partial \{T\}}{\partial t} dV - \int_{V_e} r Q [N]_e \{T\} dV \right] +$$

$$+ \sum_{e=1}^m \left[\int_{S_{2e}} q [N]_e \{T\} dS + \int_{S_{3e}} \frac{h}{2} \{T\}^T [N]_e^T [N]_e \{T\} dS - \int_{S_{3e}} h T_b [N]_e \{T\} dS + \int_{S_{3e}} \frac{h}{2} T_b^2 dS \right].$$

Funktionalni minimallashtirish natijasida quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\frac{\partial \Phi}{\partial \{T\}} = \frac{\partial}{\partial \{T\}} \sum_{e=1}^m \Phi_e = \sum_{e=1}^m \frac{\partial \Phi_e}{\partial \{T\}} = 0. \quad (10)$$

Chekli elementlarning har biri (10) umumiy yig'indiga qo'shgan hissasini matritsali differensial tenglama shaklida ifodalash mumkin:

$$\frac{\partial \Phi_e}{\partial \{T\}} = [C]_e \frac{\partial \{T\}_e}{\partial t} + [K]_e \{T\}_e - \{F\}_e^q - \{F\}_e^g - \{F\}_e^h,$$

bu yerda elementning issiqlik o'tkazuvchanlik matritsasi:

$$[K]_e = \int_{V_e} [B]_e^T [D]_e [B]_e dV + \int_{S_{3e}} h [N]_e^T [N]_e dS,$$

elementning issiqlik sig'imi matritsasi:

$$[C]_e = \int_{V_e} \rho c [N]_e^T [N]_e dV.$$

Har bir tugun nuqtaning q zichlikdagi issiqlik oqimi, Q ichki issiqlik manbasi va konvektiv issiqlik o'tkazuvchanlik vektorlari mos ravishda quyidagicha:

$$\{F\}_e^q = - \int_{S_{2e}} q [N]_e^T dS; \quad \{F\}_e^g = \int_{V_e} r Q [N]_e^T dV; \quad \{F\}_e^h = \int_{S_{3e}} h T_b [N]_e^T dS.$$

Barcha elementlarning hissalarini qo'shilganda, differensial tenglamalar sistemasini quyidagicha hosil qilish mumkin:

$$[C] \frac{\partial}{\partial t} \{T\} + [K] \{T\} = \{F\}^q + \{F\}^g + \{F\}^h, \quad (11)$$

bunda $[K]$ - umumlashgan issiqlik o'tkazuvchanlik matritsasi.

Differensial tenglamani (11) yechishda, markaziy ayirma sxemasi asosida chekli ayirmalar usulini qo'llashni ko'rib chiqamiz. Ushbu tenglama quyidagi shaklda yoziladi:

$$[C] \frac{\partial}{\partial t} \{T\} + [K] \{T\} = \{F\}, \quad (12)$$

bunda $\{F\} = \{F\}^q + \{F\}^g + \{F\}^h$.

$\Delta t = t_{n+1} - t_n$ vaqt oralig'ining o'rta nuqtadagi umumlashgan $\{T\}$ vektorining hosilasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$\frac{\partial}{\partial t} \{T\} = \frac{1}{\Delta t} (\{T\}_{n+1} - \{T\}_n). \quad (13)$$

Vaqt oralig'ining o'rta nuqtasida umumlashgan temperatura va tugunlardagi nuqtaviy yuklanish vektori quyidagicha aniqlanadi:

$$\{T\} = \frac{1}{2} (\{T\}_{n+1} + \{T\}_n), \quad (14) \quad \{F\} = \frac{1}{2} (\{F\}_{n+1} + \{F\}_n). \quad (15)$$

Yuqoridagi (12) differensial tenglamaga (13) - (15) ifodalarini qo'llab, quyidagi takroriy bog'lanish formulasini hosil qilamiz:

$$\left([K] + \frac{2}{\Delta t} [C] \right) \{T\}_{n+1} = \left(\frac{2}{\Delta t} [C] - [K] \right) \{T\}_n + 2 \{F\}. \quad (16)$$


Vaqt oralig'ining boshida tugun nuqtaning temperaturasi bilgan holda, (16) munosabat yordamida har bir vaqt oralig'idagi temperaturani hisoblash mumkin.

Dissertatsiyaning **“O'qqa nisbatan simmetrik jismlarda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini sonli modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida oddiy va murakkab geometrik konfiguratsiyaga ega, shuningdek, bir jinsli bo'lmagan o'qqa nisbatan simmetrik jismlar uchun nostatsionar issiqlik tarqalish jarayonlarini chekli elementlar usuli yordamida kompyuterda modellashtirish masalalari yoritilgan.

O'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan bir jinsli materialdan yasalgan silindrda nostatsionar issiqlik tarqalish jarayoni tadqiq qilish uchun chekli elementlar usuli qo'llaniladi. Ishlab chiqilgan hisoblash algoritmi va dasturiy ta'minoti asosida muayyan masalalarning sonli yechimi berilgan va temperatura taqsimlanish maydoni o'rganildi. Olingan yechimlar Elcut dasturida olingan natijalar bilan solishtirilgan va izotermalari keltirilgan.

Issiqlik tarqalish masalasi o'qqa nisbatan simmetrik silindrning kesimida qaraladi (2-rasm). Boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagicha yoziladi:


$$\left\{ \begin{array}{l} \rho c \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(\lambda r \frac{\partial T}{\partial r} \right) + \lambda \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} \\ t = 0 : T(r, z, 0) = T_0, 0 \leq z \leq l, r_1 \leq r \leq r_2; \\ r = r_1 = 0.2 : T(r_1, z, t) = T_h, t > 0; \end{array} \right. \quad \left\{ \begin{array}{l} r = r_2 = 0.7 : -\lambda \frac{\partial T}{\partial r}(r_2, z, t) = h(T(r_2, z, t) - T_c); \\ \frac{\partial T}{\partial z}(r, 0, t) = 0; \\ \frac{\partial T}{\partial z}(r, l, t) = 0. \end{array} \right.$$



3-rasm. Yechim sohasi va chegara shartlari

Yaratilgan hisoblash algoritmini to'g'riligini takidlash uchun, bir jinsli bo'lgan po'latdan yasalgan doimiy qalinlikka ega bo'lgan silindrli qobiqda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasi ko'rib chiqiladi (3-rasm). Silindrli po'lat qobiq o'lchamlari $r_2 = 0.7m$, ichki radius $r_1 = 0.2m$ va $l = 0.5m$. Po'lat quyidagi termofizik xususiyatlarga ega: $\lambda = 46 W / (m^{\circ}C)$, $\rho = 7800 kg / m^3$, $c = 460 J / (kg \cdot ^{\circ}C)$. Silindrli qobiqning ichki chegarasida doimiy temperatura saqlanadi: $r_1 = 0.2m$ da $T_h = 100^{\circ}C$ va $r_2 = 0.7m$ da $T_c = 20^{\circ}C$ bo'lgan tashqi muhit bilan konvektsiya mavjud. Yon chegaralarda issiqlik izolyatsiya mavjud. Silindrning boshlang'ich temperaturasi $T_0 = 50^{\circ}C$.

4.a-rasmda silindr kesimining chekli elementli to'r umumiy tasviri keltirilgan. 4.b–4.c-rasmlarda esa mos ravishda Elcut dasturiy paketida va chekli elementlar usuli asosida ishlab chiqilgan algoritm natijalari izotermalari taqdim etilgan. Vaqtning $t = 36000s$ grafik taqqoslash natijalarining yaqinligini ko'rsatadi.



4-rasm. Chekli elementli to'rning umumiy ko'rinishi va izotermalar

1-jadvalda silindr kesimining nazorat nuqtalaridagi haroratning sonli qiymatlari $t = 36000s$ da taqqoslangan. Taqdim etilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, hisoblangan yechimlar Elcut dasturiy ta'minoti natijalari bilan yetarlicha aniqlikda

mos keladi. Bu esa ishlab chiqilgan sonli model hamda masalani yechish algoritmining to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

1-jadval

Temperatura maydoning nazorat nuqtalaridagi sonli qiymatlari

Nuqtalar	A	B	C
Elcut	100	87.76	82.82
ChEU	100	87.52	82.76

Murakkab geometriya ega keramik ko‘za devorlarida nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini yechish ko‘rib chiqiladi, bu masalada vaqt bo‘yicha harorat taqsimotini aniqlash kerak: jismning ichki yuzasidan doimiy $T = 373K$ va tashqi yuzasidan issiqlik almashinish koeffitsienti $h = 10W / (m^2K)$ bo‘lgan $T_h = 313K$ konveksiya mavjud. Ko‘zaning simmetriya kesimi va o‘lchamlari 5.a-rasmda keltirilgan. Keramikaning termofizik xususiyatlari quyidagicha:

$$\lambda = 1.5 W / (mK), \rho = 2000 kg / m^3, c = 900 J / (kg K).$$



Jismning boshlang‘ich temperaturasi $T_0 = 283K$, vaqt qadami $\Delta t = 30 s$.

Masalani chekli elementlar usuli yordamida yechish maqsadida jismning kesimi 700 ta uchburchak element va 429 ta tugun nuqtalarga bo‘lindi (5.b-rasm). Turli vaqt momentlarida ($t = 60, 120$ va $180 s$) hosil bo‘lgan temperatura izotermalari 6-rasmda keltirilgan. Issiqlik oqimi harorat gradientlari ta‘sirida jismning ichki sirtidan uning tashqi sirtiga yo‘naladi. $A(1 sm, 1 sm)$ va $B(5 sm, 6 sm)$ nazorat nuqtalaridagi temperatura qiymatlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Nazorat nuqtalardagi temperatura qiymatlari

Nuqtalar	t = 60 s	t = 120 s	t = 180 s
$A(1 sm, 1 sm)$	366.85	369.09	369.19
$B(5 sm, 6 sm)$	358.97	367.53	368.37



b


5-rasm. Jismning simmetriya kesimi (a) va chekli elementlar to‘ri (b)



6-rasm. t = 60, 120 va 180 sekundlardagi izotermalar

Bu paragrafda o'qqa nisbatan simmetrik jismdagi nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini sonli yechimlarini ishonchliligini baholash uchun hisoblash tajribalari o'tkazildi va murakkab geometriyaga ega o'z ichiga ikki qo'shimcha qoplamani olgan bir jinsli bo'lmagan o'qqa nisbatan simmetrik jismda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasini ko'ramiz.

Po'latdan yasalgan o'qqa nisbatan simmetrik jismda issiqlik tarqalishining nostatsionar masalasi ko'rib chiqiladi, bu yerda jismdagi harorat taqsimotini aniqlash kerak. O'qqa nisbatan simmetrik jismning kesimi ko'rinishi va o'lchamlari 7.a-rasmda keltirilgan. Jismning ichki yuzasidan doimiy $T_h = 100^\circ\text{C}$ issiqlik berilgan. Yon sirtlardan $T_c = 20^\circ\text{C}$ tashqi muhit bilan issiqlik almashinish mavjud. Tashqi muhit bilan issiqlik almashinish koeffitsiyenti $h = 10\text{W} / (\text{K} \cdot \text{m}^2)$. Jismning boshlang'ich ($t = 0\text{s}$) harorati $T_0 = 20^\circ\text{C}$. Po'lat quyidagi termofizik xususiyatlarga ega: $\lambda = 46\text{W} / (\text{m}^\circ\text{C})$, $\rho = 7800\text{kg} / \text{m}^3$, $c = 460\text{J} / (\text{kg}^\circ\text{C})$.



7-rasm. O'qqa nisbatan simmetrik jism kesimi va chekli elementlar to'ri

Boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagicha:

$$\left\{ \begin{array}{l} \rho c \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(\lambda r \frac{\partial T}{\partial r} \right) + \lambda \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} \\ t = 0 : T(r, z, 0) = T_0, 0 \leq z \leq 20, 5 \leq r \leq 15; \\ r = 5, 0 \leq z \leq 7 : T(5, z, t) = T_h; \\ (r-5)^2 + (z-10)^2 = 9 : T(r, z, t) = T_h; \end{array} \right. \left\{ \begin{array}{l} r = 5, 13 \leq z \leq 20 : T(5, z, t) = T_h; \\ r = 15, 0 \leq z \leq 20 : -\lambda \frac{\partial T}{\partial r}(15, z, t) = h(T(15, z, t) - T_c); \\ 5 \leq r \leq 15, z = 0 : \frac{\partial T}{\partial r}(r, 0, t) = 0; \\ 5 \leq r \leq 15, z = 20 : \frac{\partial T}{\partial r}(r, 20, t) = 0. \end{array} \right.$$

Olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish uchun chekli elementlar sonini ko'paytirishning yechimlarning yaqinlashuviga ta'sirini sonli o'rganish bilan bog'liq hisoblash tajribasi o'tkazildi. 3-jadvalda turli variantlarda diskret modelidagi chekli elementlar va tugunlar soni keltirilgan.


3-jadval

60 sekundagi nazorat nuqtalaridagi harorat ($^\circ\text{C}$)

Variant	Chekli elementlar	Tugun nuqtalar	Koordinata A(10sm, 10sm)	A (%)	Koordinata B(20sm, 15sm)	B (%)
1	156	98	75,823	4,3	50,297	6,4
2	622	350	72,554		47,062	
3	1388	752	71,108	1,9	45,394	3,5
4	2492	1323	71,005	0,14	45,494	0,22

Nazorat nuqtalarining 60 sekundagi harorat ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan (vaqt qadami $\Delta t = 6s$). Eksperimental natijalarni tahlil qilish, chekli elementlar soni ortirilgani sababli, harorat qiymatlarining yaqinlashishini tasdiqlaydi. 8.b-rasmda chekli elementlar to'ring 4-varianti keltirilgan.

Harorat maydoning 60-sekundagi 4-variant diskret modelida yechilgan masalaning sonli natijalari vizualizatsiyasi va izotermalari 8-rasmda berilgan.



8-rasm. Harorat maydoning 60-sekundagi vizualizatsiyasi va izotermalari

O'z ichiga ikki qo'shimcha qoplamani olgan bir jinsli bo'lmagan murakkab o'qqa nisbatan simmetrik mis jismda nostatsionar issiqlik tarqalish masalasi ko'rib chiqiladi. O'qqa nisbatan simmetrik jismning kesimi va qo'shimcha qoplamalarning joylashuvi 9.a-rasmda keltirilgan. Jismning ichki yuzasidan doimiy $T_s = 100^\circ C$ issiqlik berilgan (vaqt qadami $\Delta t = 5s$). Yon sirtlardan $T_{tm} = 0^\circ C$ tashqi muhit bilan issiqlik almashinish mavjud. Tashqi muhit bilan issiqlik almashinish koefitsiyenti $h = 10 W / (K \cdot m^2)$. Jismning boshlang'ich ($t = 0s$) harorati $T_0 = 50^\circ C$. Mis (1, 9.a-rasm) quyidagi termofizik xususiyatlarga ega:

$$\lambda_1 = 384 W / (m^\circ C), \rho_1 = 8800 kg / m^3, c_1 = 381 J / (kg^\circ C).$$

Qo'shimcha qoplama materialining termofizik xususiyatlari: po'lat (2, 9.a-rasmda):

$$\lambda_2 = 46 W / (m^\circ C), \rho_2 = 7800 kg / m^3, c_2 = 460 J / (kg^\circ C),$$

va temir (3, 9.a-rasmda):


$$\lambda_3 = 71 W / (m^\circ C), \rho_3 = 7900 kg / m^3, c_3 = 460 J / (kg^\circ C).$$

Boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagicha:

$$\left\{ \begin{array}{l} \rho c \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(\lambda r \frac{\partial T}{\partial r} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\lambda \frac{\partial T}{\partial z} \right); \\ t = 0: T(r, z, 0) = T_0, 0 \leq z \leq 20, 5 \leq r \leq 15; \\ r = 5, 0 \leq z \leq 7: T(5, z, t) = T_s; \\ (r-5)^2 + (z-10)^2 = 9: T(r, z, t) = T_s; \\ r = 5, 13 \leq z \leq 20: T(5, z, t) = T_s; \\ r = 15, 0 \leq z \leq 20: -\lambda \frac{\partial T}{\partial r}(15, z, t) = h(T(15, z, t) - T_c); \end{array} \right. \left\{ \begin{array}{l} 5 \leq r \leq 15, z = 0: \frac{\partial T}{\partial r}(r, 0, t) = 0; \\ 5 \leq r \leq 15, z = 20: \frac{\partial T}{\partial r}(r, 20, t) = 0; \\ (r-11)^2 + (r-10)^2 = 1: \frac{\partial T}{\partial r}(r, z, t) = 0, \frac{\partial T}{\partial z}(r, z, t) = 0; \\ 9 \leq r \leq 13, 1 \leq z \leq 3: \rho = \rho_2, c = c_2, \lambda = \lambda_2; \\ 9 \leq r \leq 13, 17 \leq z \leq 19: \rho = \rho_3, c = c_3, \lambda = \lambda_3. \end{array} \right.$$

Bir jinsli bo'lmagan o'qqa nisbatan simmetrik jism kesimining chekli elementli to'ring umumiy ko'rinishi 9.b-rasmda keltirilgan. Masalani yechishda foydalaniladigan chekli elementlar to'ri quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi: 979 ta tugun nuqta, 1848 ta chekli element, tenglamalar sistemasining o'lchami $n=979$, nolga teng bo'lmagan elementlar joylashgan lentaning kengligi 34 ga teng, yakuniy hisoblash vaqti esa 60 sekundni tashkil etadi (vaqt qadami $\Delta t = 5s$).

